



PARIS
FRANCE
CONFERENCE
2023.

International Conference on

Modern Science and Scientific Studies

Vol 2, Issue 11, November 19th 2023

ISSN (E): 2835-3730 | SJIF 2023: 5.272



Topics

- NATURAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES
- APPLIED SCIENCES
- MEDICAL SCIENCES
- ENGINEERING SCIENCES



E- CONFERENCE
SERIES



Vol. 2 No. 11 (2023): SCMS

Articles

1. IMPROVEMENT OF FIG DRYING PROCESS
L. I. Akabirov
1-2
2. COMPLEX EVALUATION OF QUALITY INDICATORS OF TWO-LAYER KNITTED FABRICS IN NEW STRUCTURE
J. Z. Borotov, K. M. Xoliqov, N. N. Yoqubjanov, M. M. Mukimov
3-8
3. RESEARCH OF THE TECHNOLOGY OF OBTAINING TWO-LAYER KNITTED FABRICS IN A NEW STRUCTURE OF A FLAT TWO-NEEDLE KNITTING MACHINE WITH THE NEEDLES PLACED IN A RUBBER ARRANGEMENT
J. Z. Borotov, K. M. Xoliqov, N. N. Yoqubjanov, M. M. Mukimov
8-11
4. LEARNING COUNT WORDS AS AN EXAMPLE OF THE STORY "THIEF" BY ABDULLAH QAHOR
Nilufar Norsafarova
12-16
5. MAVZU; BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH.TURLI YOSH GURUHLARIDA MATN BILAN ISHLASH METODIKASI
Jo'rayeva Mohinur Yoqub qizi
17-21
6. SCIENTIFIC BASIS OF TAX BURDEN IN THE SYSTEM OF TAX RELATIONS
Nasimov Ravshanjon Azimovich
22-25
7. PROBLEMS IN FORMATION OF BASIC COMPETENCES OF EDUCATORS IN THE PROCESS OF PREPARATION FOR SCHOOL
Kholtorayeva Sabina Khoshmurod kizi
26-29
8. USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN LEARNING ENGLISH
Azimbayeva Ranokhan Yuldashevna
30-34
9. THE CONCEPT OF TRANSLATION IN THE PROCESS OF COMMUNICATION
Sagdullaeva Dilfuza Karimullaevna
35-37
10. BO‘LAJAK O‘QITUVCNILARDA NUTQ TEXNIKASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI
Anarkulova Gulnaz Mirzaxmatovna, Xamrakulova Nurshoda Axror kizi
38-42
11. PEDAGOGIK KENGASH FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI
Xamidova Rislig'oy Faraaodovna
43-47

12. ВЛИЯНИЕ СПОСОБОВ И ПРАВИЛ ПОЛИВАНИЯ НА ВЫСОТУ РАСТЕНИЙ

Хазраткулова Шахноза Усмоновна, Чулиев Махматмурад Норбоевич
48-51

13. XALQARO VA MILLIY KORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH NUQTAI NAZARIDAN BOSHQARUV SHABLONLARINING
AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Ergasheva Barno Nuriddin qizi
52-57

14. ИЖТИМОЙ ДАВЛАТ: ИЛМИЙ СИЁСИЙ, ФАЛСАФИЙ ҲУҚУҚИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ
АКСИОЛОГИК ДИСКУРСЛАР

Атавуллаев Миркомил Аҳмадович.
58-67

15. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ КОМПЕТЕНЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ И
ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ
ГРАМОТНОСТИ

Абдижамилова Махфуза Махмудовна
68-71

16. МАЪНАВИЯТ - ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИ КАФОЛАТИ

Тўланов Мамасидик
72-74

17. OLIY TA'LIM BOSHQARUVI SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi
75-77

18. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IQTIDORLI YOSHLAR BILAN ISHLASHNI TIZIMLI
TASHKIL ETISH MASALALARI

Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi
78-81

19. "KATTA ADRON KOLLAYDERINING YARATILISHI, ISHLASH MEXANIZMI"

Ismoilova Nafisa Isroil qizi
82-85

20. PRAGMATIC FOUNDATIONS OF TEACHING THE KARAKALPAK LANGUAGE

G. R. Bekimbetova
86-90

21. TEACHING THE KARAKALPAK LANGUAGE IN SCHOOLS WHERE EDUCATION IS
CONDUCTED IN OTHER LANGUAGES

G. R. Bekimbetova
91-95

22. MUQOBIL ENERGIYA MANBAALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINNI
OSHIRISH

Qodirova Arofat Abdulkarimovna, Miraliev Habiba
96-103

23. INDIAN CULTURE

Musayeva Yulduz O'ktam qizi
104-107

24. THE IMPORTANCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM

Arzikulova Gulsanam Abdumajitovna, Dilshodakhan Iminjonova Oybek's daughter, Sulaimanova Dilnoza Shukrilayevna
108-110

25. ОИЛА ВА ЖАМИЯТ МУНОСАБАТЛАРИДА ОИЛА ТАРБИЯСИ – ИЖТИМОЙ ТАРБИЯНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА

Усмонова Роҳила Мардонкуловна
111-116

26. TIJORAT BANKLARI REYTINGINI ANIQLASHNING ZARURLIGI VA XUSUSIYATLARI

Maxmudov Omon Tuxtayevich, Allamurodova Fotima Alibekovna
117-119

27. THE DIFFERENCE BETWEEN UZBEK AND ENGLISH CULTURE

Anvarova Madinabonu Ahmadjon qizi
120-123

28. ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Мухамадиева Зарина Баходировна
124-127

29. XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ERTAK JANRINI O‘RGANISHNING LINGVOMADANIY ASOSLARI

Usmanova Guzal Tulkunovna
128-132

30. DETERMINATION OF IRRIGATION PROCEDURES IN GROWING CORN (SILAGE) WITH WASTEWATER

I. I. Islamov, Z. Z. Hakimova
133-138

31. TILSHUNOSLIKDA OLAMNING LISONIY VA KONSEPTUAL MANZARASI TUSHUNCHALARI

Kaipbergenova Dilbar Orakbaevna
139-143

32. BUGUNGI KUNDA MILLIY KONSEPTOSFERALAR TADQIQINING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKKA DOIR ASPEKTLARI

Zakirova Shirin Irgashevna
144-147

33. IMPROVING ENGLISH LANGUAGE LISTENING SKILL

Boboqulova Dilnoza Bakhtiyor qizi
148-151

34. QATLAMLARNI AJRATISHDAN MAQSAD VA UNING VAZIFALARI

Bo‘riev Sardor Sayfullaevich, Talabasi Eshturdiyev Temurbek Diyor o‘g‘li.
152-157

35. ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDA GEOGRAFIK MUHITNING O‘RNI

Mamanov jamoliddin Abduraximovich
158-166

QATLAMLARNI AJRATISHDAN MAQSAD VA UNING VAZIFALARI

Bo‘riev Sardor Sayfullaevich Qar MII

“Foydaliqazilmalargeologiyasivarazvedkasi”

kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Telefon: +998914551011

talabasi Eshturdiyev Temurbek Diyor o‘g‘li.

“Foydaliqazilmalargeologiyasivarazvedkasi”

ANNOTATSIYA

Tayanch iboralar: Sement toshi-sement aralashmasining qotib toshga aylanishi; sentrator-himoya quvurlarini quduq o‘qi bo‘ylab markazlashtirish vazifisini bajaruvchi jihoz. Bufer suyuqlik ikkita suyuqlikning bir-biriga aralashib ketishini oldini olishsh. Filtratsion qobiq - burg‘ilash eritmasini quduq devorlariga sizishi natijasida hosil bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: quduq, qatlam, suyuqlik oqimi, kollektorlik, anomallik koeffitsiyenti, tabiiy energiya, favvoralanish, otqin, grifon, gorizont, sementlash.

Key words: Turning cement stone-cement mixture into solid stone; a device that performs the task of centering the cementator-protection pipes along the axis of the well. A buffer liquid prevents two liquids from mixing. Filtration crust - formed as a result of seepage of drilling fluid on the walls of the well.

Key words: well, layer, fluid flow, reservoir, anomaly coefficient, natural energy, fountaining, seepage, gryphon, horizon, cementation.

Ключевые слова: Превращение цементно-цементной смеси в твердый камень; устройство, выполняющее задачу центрирования цементаторно-защитных труб по оси скважины. Буферная жидкость предотвращает смешивание двух жидкостей. Фильтрационная корка – образуется в результате просачивания бурового раствора на стенки скважины.

Ключевые слова: скважина, пласт, поток жидкости, пласт, коэффициент аномалии, природная энергия, фонтанирование, просачивание, грифон, горизонт, цементация.



Qatlamlarni ajratishdan maqsad

Quduqda ochilgan qatlamlarni bir-biridan ajratishdan maqsad bir qatlamdan boshqa bir qatlamga suyuqlik oqimi o'tishini, atmosferaga chiqishini oldini olishdir;

Qatlamlarga begona suyuqlik kirishi tufayli qatlamni kollektorliq xossasining yomonlashuvini oldini olish, atrof-muhit va yer ostining ifloslanishini oldini olish;

O'tkazuvchan tog' jinslarida qatlam bosimining anomallik koeffitsiyenti turlicha bo'lgan o'tkazuvchan gorizontlar ochilgan bo'lsa, anomallik koeffitsiyenti yuqori bo'lgan gorizontlarda boshqa anomallik koeffitsiyenti kichik bo'lgan gorizontga o'tkazuvchan qatlamga suyuqlikning o'tishi uchun sharoit yaratadi. Natijada gorizont tabiiy energiyasining kamayishiga, kollektorlik xossasining buzilishiga, hatto quduqda otqin ro'y berishi, grifonlar hosil bo'lishiga, ochiq favvoralanishga olib keladi.

Qatlamlarni ajratish sifatiga qo'yiladigan talablar

1. Quduqda mavjud bo'lgan, ya'ni burg'ilash natijasida ochilgan o'tkazuvchan qatlamlarni ajratadigan bir qatlamdan boshqa bir qatlamga yoki atmosferaga qatlam suyuqligining chiqib ketishini oldini olish, mahsuldor qatlamlarga begona qatlam suvlarining kirib ifloslantirishini, ularni kollektorlik xossasining yomonlashuvini, yer osti va yer usti atrof muhitining ifloslanishini bartaraf etishdir.

2. Qatlamlarni ajratish sifatiga o'ta jiddiy talablar qo'yiladi.

3. Quduqlarda ochilgan o'tkazuvchan qatlamlar orasida mavjud yoki hosil bo'ladigan bosimlar farqiga ajratuvchi muhit germetik holatda bo'lishi kerak.

4. Ajratuvchi muhit, o'z atrofini o'rab turgan tog' jinslari va himoya kalonnasining tashqi yuzasi bilan zich aloqada bo'lishi kerak. Uning germetikligi himoya quvurlarida bo'ladigan har qanday deformatsiyalarda ham (yemirilmasligi) buzilmasligi kerak.

5. Ajratuvchi muhit ko'p yillik bo'lmog'i, ya'ni quduqni burg'ilash yoki ekspluatatsiya qilish davrida bo'lishi mumkin bo'lgan haroratni o'zgarish jarayonlariga va qatlam suvlar, gazlar, bakteriyalarning ta'siri ostida yemirilmasligi kerak

6. Ajratuvchi muhitning germetikligi quduqda otish ishlari va boshqa ishlarni olib borish jarayonida hosil bo'ladigan zarbli kuchlar ta'siridan yemirilmasligi kerak.

7. Ajratuvchi muhit ko'p yillik muzli tog' jinslari mavjud quduqlarda sovuqqa chidamli, ya'ni ko'p martali yuqori haroratdan past haroratga, past haroratdan yuqori



haroratga o'zgarishi tufayli yemirilmasligi lozim.

Qatlamlarni ajratish sifatiga ta'sir qiluvchi omillar

Agar sementlangan halqa oralig'ida mavjud bir - biridan ajralib turgan o'tkazuvchan gorizontlarga qatlam suvlari sizib o'ta olmasa, quduqda ochilgan o'tkazuvchan qatlamlarning mustahkam ajratilgani qatlamlarni ajratish sifatiga ta'sir qiluvchi omil bo'ladi.

Qatlamlarni ajratish sifati tamponaj eritmasi va toshining xossasi va uning tarkibini to'g'ri tanlash darajasiga bog'liq. Sement toshi qancha mustahkam bo'lsa, uning qatlam suvlari bilan yuvilishi, qatlam suvlarining sizib kirishi shuncha kam bo'ladi. Ikki qo'shni o'tkazuvchan gorizontlar orasida hosil bo'ladigan yuqori bosimlar farqi jarayonida toshning g'ovak kanalli devorida urinma kuchlar yuqori bo'lishi natijasida mustahkam bo'lmagan toshlarda buzilish ro'y beradi. Shu sabablarga ko'ra, mahsuldor qatlamlar mavjud zonalar hamda anomal koeffitsiyenti yuqori bo'lgan gorizontlarni umuman o'tkazmas yuqori mustahkam tosh hosil qiluvchi eritma bilan sementlash zarur.

Quduqni sifatli ajratish ishlaridan biri sement eritmasi bilan yuvuvchi suyuqlikni quduqdan to'liq siqib chiqarishdir. Buning uchun sementlash jarayonida halqa oralig'ida turbulent rejimni hosil qilish, quduqda himoya kalonnasini yaxshi markazlashtirish, sementlash jarayonida kalonnani harakatlantirib turish, quduq stvoli kengaygan oraliqlarda suyuqlik oqimini hosil qilish, tamponaj eritmasining yuvuvchi suyuqlik bilan aralashib ketishini oldini olish, quduq devorlaridagi o'tkazuvchan qatlam oraliqlarida mavjud filtratsion qobiqlarni yo'qotish, himoya quvurlari yuzasidagi yuvuvchi suyuqlik plyonkasini yo'qotishdir.

Demak, halqa oralig'idagi tamponaj eritmasini boshlang'ich siqib chiqarish tezligi, kritik tezlikdan (tamponaj eritmasi uchun ham, yuvuvchi suyuqlik uchun ham) yuqori bo'lishi kerak.

Chiquvchi tamponaj eritmasining oqimi yuvuvchi suyuqlikni, qachonki quduqdagi himoya kalonnalarining o'qi quduqning o'qi bilan mos bo'lsa, bir tekisda siqib chiqaradi. Agar kalonnalar quduq o'qi bilan bir xilda joylashmagan bo'lsa, quduqdagi tamponaj eritmasi qaysi oraliqda quduqning ko'ndalang kesim yuzasi katta bo'lsa, shu oraliqdan harakatlanib chiqishiga intiladi. Chunki bu oraliqlarda gidravlik qarshilik kichik oraliqlar mavjud uchastkalarga tamponaj eritmasi umuman kirmasligi yoki katta oraliqlarda nisbatan juda sekin harakatlanadi. Natijada sementlash so'ngida quduqda, toraygan oraliqlarda ma'lum bir hajmli yuvuvchi suyuqlik siqib chiqarilmay qoladi.



Quduqda kalonnalar quduq o‘qi bo‘ylab joylashishi uchun kalonnalar tushirilishidan avval sentratorlar bilan jihozlanadi.

Quduqda doim kengaygan uchastkalar bo‘lib, bu uchastkalarda mavjud yuvuvchi suyuqliklar quyushqoq holatda bo‘ladi. Bunday uchastkalardan suyuqlikni chiqarish uchun himoya kalonnalarini aylantirish yoki ma’lum bir masofaga ko‘tarib tushirish kerak. Eng yaxshi natija kalonnani aylantirishda olinadi. Bunda aylantirish tezligi katta bo‘lishi shart emas.

Agar tamponaj eritmasi bevosita yutuvchi suyuqlik ortidan harakatlanadigan bo‘lsa, u holda tamponaj eritmasi bilan yuvuvchi suyuqlikning aralashuvi jarayonida ko‘pincha yuqori qovushqoq tekstotropik aralashma hosil bo‘ladi. Natijada quduq devorlarida va nasoslarda gidravlik bosim oshishi tufayli bunday aralashmani quduq ichidan to‘liq siqib chiqarishga erishib bo‘lmaydi.

Bunday aralashmaning kalonna ichida hosil bo‘lishini oldini olish uchun ostki va ustki ajratish tiqinlaridan foydalaniladi. Quvur ostidagi halqa oralig‘ida bu funksiyani maxsus suyuqlik, ya’ni bufer suyuqligi bajaradi. Bufer suyuqligi yuvuvchi suyuqlik bilan ham, tamponaj eritmasi bilan ham aloqada bo‘lgan vaqtida yuqori qovushqoq aralashmani hosil qilmasligi lozim. Bufer ajratuvchi sifatida qovushqoq (masalan, suv tuzning suvdagi eritmalari) hamda qovushqoq egiluvchan (masalan, suvli eritmali poliakrilamid aralashmasi, geksarezorsinli smolalar va normalin) suyuqliklardan foydalaniladi.

Quduq devorlarida yuvuvchi suyuqlikning dispers faza parchalaridan tashkil topgan filtratsion qobiqlarning bo‘lishi sementlash jarayonida tamponaj eritmasi tarkibidagi suvni tez yo‘qotishning oldini oladi. Lekin, sementlash tugaganidan keyin bunday qobiqning saqlanib qolishi, hosil bo‘ladigan sement toshi bilan tog‘ jinsi orasidagi o‘zaro bog‘lanish mustahkamligini kamaytiradi. Agar bunday oraliqlarda yuqori dispersiya ro‘y bersa, germetiklik tezda buziladi. Masalan, mahsuldor qatlamdan oqim olish uchun yuqori dispersiya hosil qilinadi.

Demak, sementlash jarayonida quduq devorlarida mavjud filtratsion qobiqlarni yo‘qotish zarur.

Filtratsion qobiqlar mavjud ortiqlarning qobiqlarini yo‘qotish uchun himoya quvurlariga maxsus simli skrepkalar o‘rnatiladi. Skrepkalar qobiqlar mavjud oraliqlarga o‘rnatilib, kalonna tushirilishi yoki aylantirilishi jaryonida qobiqlarni yemirsa, yuqoriga chiquvchi yuvuvchi suyuqlik oqimi bilan yemirlgan qobiqlar yuza qismiga chiqib ketadi.

Filtratsion qobiqni yemirish uchun maxsus bufer suyuqliklari ham ishlatiladi. Bu suyuqliklar quduq devorlaridagi filtratsion qobiqlar bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib,



ularning quduq devorlari bilan birikishini kuchsizlantiradi yoki to'liq yemiradi. Ma'lum qolgan bir qismini tamponaj eritmasi siqib chiqaradi. Bunday bufer suyuqliklariga ayrim kislotalar (xlorid, sulfaminli, uksus kislotalari), kalsiy gidroksidi, natriy fosfati va boshqalar kiradi.

Xemogen yotqiziqlaridagi tuzlarni sementlash jaryonida tamponaj eritmasining dispers muhitida erish ro'y berishi mumkin. Natijada quduq devori bilan tamponaj toshi orasida mineral suvli qatlamchalarning hosil bo'lishi kutiladi.

Vaqt o'tishi bilan bu qatlamchalar qatlam suyuqliklarining harakatlanish kanalchalari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Demak, quduqning germetikligi buziladi. Germetiklikni saqlash, ya'ni xemogen tog' jinslari bilan tamponaj toshi orasida hosil bo'ladigan mineral suvli qatlamchalarni yo'qotish uchun tamponaj eritmasi uchun sementning tuzga chidamliligini tiklash zarur. Bunday sementdan hosil bo'lgan tosh tuzlar ta'siri ostida yemirilishga uchramasligi zarur.

Himoya kalonnasining tashqi qismiga o'rnatilgan paker yordamida germetiklikni saqlash va yemirilish xavfini kamaytirishga erishiladi. Favvoraga qarshi uskunalar o'rnatilgan himoya kalonnalariga - paker boshmoqqa yaqin masofada o'rnatiladi; Eksploatatsion himoya kalonnalarida pakerlar gazli gorizontlar qoplamasidan yuqori anomal yuqori qatlam bosimli gorizontlaridan yuqorida o'rnatiladi. Eksploatatsion himoya quvurining sementlanadigan ostki qismida sement toshining mustahkamligini oshirish uchun sementlash jarayonida tamponaj eritmasi quyuglanishi davrida eksploatatsion himoya kalonnasi ichida ortiqcha bosim hosil qilib, ushlab turish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А. И. Ипатов, М. И. Кременетский Геофизические методы контроля разработки месторождений нефти и газа: учебник. - М.: Издательский центр РГУ нефти и газа им. И.М. Губкина, 2012 - 374с.
2. С.П. Скопинцев Аппаратура ГИС - контрол: учебное пособие. - Издательский центр РГУ нефти и газа им. И.М. Губкина, 2014. - 208 с
3. М.Г.Латишова, В.Г.Мартинов, И.Ф.Соколова. Практичес-кое руководство по интерпретатсии данных ГИС: учебное пособие. - М.: Недра, 2007 - 328с.
4. Bo'riev Sardor Sayfullaevich. QATLAMNI GIDRAVLIK YORISHDA QO'LLANILADIGAN ERITMALAR TURINI ASOSLASH . Journal of New Century Innovations, 11(1), 69–75. Retrieved from 2022
5. <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/1321>
6. Bo'riev, S. Qatlamning gidravlik yorish(qgy)ni texnologiyasini muommalari va ularni tahlili. Евразийский журнал академических исследований, 2(11),



723–725. извлечено от2022<https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/5063>

7. Bo‘riev, S. S. (2023). Kon shroitida qo‘llaniladigan qatlamni gidravlik yorish texnikalari va texnologiyalarini qo‘llanilish tahlili. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 54–58. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1206>
8. Bo‘rievS.S. Kon shroitida qatlam gidravlik yorilgandan keyin quduqda yuvish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar. 2023 Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 582–585. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2196>
9. Bo‘riev, S. S. Qatlamni gidravlik yorish (qgy) ni amalga oshirishda qo‘llaniladigan agregatlarning bog‘lanmasi. International conferences, 1(1), 278–280. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1160>
10. Bo‘riev, S. S. G‘arbiy o‘zbekistonda terrigen yura yotqiziqlarining gazlilik istiqbollari. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. 93-96 <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/8897>.

